



Faxruddin Ali Safiyning "Rashahot aynu-l-hayot" asarining muallif qo'lyozmasi faksimil nusxasi nashr etildi

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi olimlari tomonidan milliy ma'naviyatmiz xazinasiga oid yana bir noyob nashr amalga oshirildi.



Mashhur tasavvufshunos Faxruddin Ali Safiyning "Rashahot aynu-l-hayot" asarining muallif qo'lyozmasi faksimil nusxasi nashr etildi. Qo'lyozma 1530-yil ko'chirilgan bo'lib, hozirda Muzey fondida saqlanadi. Manbashunoslik, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik va tasavvufshunoslik nuqtai nazaridan nihoyatda qimmatli bo'lgan ushbu kitobni o'z davridayoq ko'plab soha olimlari e'tirof etishgan. Unda Xoja Ahror Valiy hayoti va faoliyati borasida mufassal bayon qilingan. Yana boshqa ko'plab movarounnahrlik avliyolar borasida ham so'zlanadi.

Kitob 59,5 bosma taboq hajmda, 462 sahifadan iborat. Asar manbashunos olimlar Y.Tursunov va O.Jo'rabyev tomonidan nashrga tayyorlangan.